ISNN 3030-3907

2026
JUNE
ISSUE - 6
VOLUME -7

DEVELOPMENT OF SCIENCE

scientific journal



Development of science

Ilmiy jurnal

IYUN 2026
Issue - 6, VOLUME – 7

ISSN 3030 -3907

Ilmiy jurnal OAK rayosatining 2024 yil 27 sentabrdagi 361-son qaroriga asosan 02.00.00 kimyo fanlari hamda 2025 yil 12 fevral 367- son qaroriga asosan 05.00.00 texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) va fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiya ishlari yuzasidan dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan.

BOSH MUHARRIR:
Temirov Alisher Hoshim o‘g‘li – texnika fanlari falsafa doktori (PhD),Dotsent.
TAHRIRIYAT KENGASH RAISI:
Fozilov Sadriddin Fayzullayevich – texnika fanlari doktori, professor
TAHRIRIYAT KENGASH A’ZOLARI

TEXNIKA FANLARI/ TECHNICAL SCIENCES/ ТЕХНИЧЕСКИЕ НАУКИ

Bozorov G‘ayrat Rashidovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Abdurahmonov Olim Rustamovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Adizov Bobur Zamirovich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Umumiy va noorganik kimyo instituti, professor
Hayitov Ruslan Rustamjonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Jumayev Qayum Karimovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Berdiyev Dorob Murodovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor
Maxmudov Rafiq Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Tilloyev Lochin Ismatilloyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Raxmonov Qahramon Sanakulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Barakayev Nusratullo Rajabovich
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti, professor.
Jo‘rayev Xayrullo Fayziyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Panoyev Erali Rajabboyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Ataullayev Sherzod Nabiullyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Malik Negmurodovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Axmedova Ozoda Bahronovna
Islom Karimov nomidagi Toshkent Davlat Texnika Universiteti.
Safarov Bahri Jumayevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Xaydarov Axtam Amonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Safarov Jasur Alijon o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

KIMYO FANLARI/ CHEMICAL SCIENCES/ ХИМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Axmedov Voxid Nizomovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Umarov Baqo Bafoyevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Kodirov Abduaxad Abduraximovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Qurbonov Mingniqul Jumagulovich
Qarshi davlat Universiteti, dotsent
Turemuratov Sharibay Naurizbaevich
O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Qoraqalpog‘iston bo‘limi Bosh ilmiy kotibi, professor
Tursunov Kaxor Shonazarovich
Qarshi davlat Universiteti, professor
Do‘stov Hamro
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor
Panoyev Nodir Shavkatovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Olimov Bobur Bahodir o‘g‘li
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Kasimov Sherzod Abduazimovich
Termiz Davlat Universiteti, professor.
Aliqulov Rustam Valiyevich
Termiz Davlat Universiteti, professor
Tropov Xamza Tursunovich
Samarqand Davlat Universiteti, professor

IQTISODIYOT FANLARI/ ECONOMICS/ ЭКОНОМИЧЕСКИЕ НАУКИ

Nizamov Aslitdin Badreddinovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Boboyev Akmal Choriyevich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Ergashxojayeva Shaxnoza Djasurovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Saidaxmedova Nodira Ilxomovna
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, professor
Muxsinov Bekzod Toxirovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shakarov Qulmat Ashirovich
Renessans ta'lim universiteti,dotsent.
Jumaeva Zulfiya Qayumovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Norova Salomat Yusupovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Avezova Shaxnoza Maxmudjonovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Jalilov Jamshid G‘anijonovich
Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, dotsent
Xasanova Gulruh Djumanazarovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.

PEDAGOGIKA FANLARI/ PEDAGOGICAL SCIENCES / ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ НАУКИ

Siddiqova Sadoqat G‘afforovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Zoyirov Erkin Xalilovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, DSc, professor
Gaffarov Feruz Hasanovich
Puchon Universiteti, *professor*
Ruziyev Davron Yuldashevich
Buxoro Davlat Universiteti, professor
Muradova Firuza Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Yunusova Gulandon Samiyevna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
To‘xtayeva Zebo Sharifovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, professor.
Navro‘zova Gulchixra Nigmatovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Uzoqova Laylo Polvonovna
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.
To‘raqulova Marjona Qiyom qizi
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Muradova Zarina Rashidovna
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Murodov Sanjar Aslonovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent.
Shodiyev Jahongir Jo‘raqulovich
Buxoro Davlat Texnika Universiteti, dotsent
Gaffarov Laziz Hasanovich
Buxoro muhandislik – texnologiya instituti, dotsent.

Tahririyat a’zolarning to‘liq ro‘yxati jurnalning www.devos.uz saytida keltirilgan.

Tahririyat hay’ati a’zolarining tarkibini o‘zgartirish hamda qo‘shimcha kiritish yoki tahririyat a’zoligidan chiqarish bosh muharrir tomonidan amalga oshiriladi.

ISSN 3030-3907

Development of science ilmiy jurnali 2024 yil 15 aprel kuni №256445 sonli guvohnoma bilan Davlat ro‘yxatidan o‘tgan.

To‘plam elektron ko‘rinishda (pdf formatida) mualliflarga taqdim etiladi. To‘plamga kiritiladigan maqolalarning mazmuni, ulardagi statistik ma’lumotlar va me’yoriy hujjatlarning to‘g‘riligiga hamda har qanday fikr - mulohazalarga mualliflarning o‘zlari mas’ul hisoblanadilar. Talablarga javob bermaydigan maqolalar to‘plamga kiritilmaydi. Tashkiliy qo‘mita maqola matnini qisqartirish, qisman tuzatish kiritish, seksiyalarga joylashtirish huquqiga ega.

ISSN 3030-3907

ORNAMENT BILAN BEZATILGAN AYOLLAR PIDJAGINING SANOAT NAMUNASINI TAYYORLASH VA ISHLAB CHIQARISHGA JORIY QILISHNING IQTISODIY SAMARADORLIGI

Tursunova Shaxzoda Foziljon qizi
Namangan davlat texnika universiteti PhD assistenti
E-mail: @shaxzodatursunova30@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqola tikuvchilik mahsulotlarida, xususan, ayollar kiyimlarining dekorativ elementlarini ishlab chiqarishda innovatsion usullarni joriy etishning iqtisodiy samaradorligini tahlii qilishga bag‘ishlangan. Tadqiqotning asosiy maqsadi an’anaviy va innovatsion usullar asosida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy iqtisodiy ko‘rsatkichlari (birlik tannarx, sotish narxi, foyda, rentabellik)ni solishtirma tahlil qilish va yangi usulning korxona moliyaviy natijalariga ta’sirini aniqlashdan iborat. Tadqiqot metodologiyasi korxona ma’lumotlari asosida birlik va umumiy foyda, foyda marjasi va qo‘shimcha foyda kabi ko‘rsatkichlarni hisoblashni o‘z ichiga oladi. Natijalar shuni ko‘rsatadiki, innovatsion yondashuv birlik foydani 20% ga, yillik sof foydani 670 million so‘mga, foyda marjasini esa 1,54 foiz punktga oshirish imkonini beradi. Xulosa sifatida, dekorativ elementlarni ishlab chiqarishning innovatsion usullari nafaqat mahsulotning estetik qiyinatini oshiradi, balki korxonaning raqobatbardoshligi va moliyaviy barqarorligini mustahkamlovchi yuqori iqtisodiy samaradorlikka ega ekanligi isbotlangan.

Kalit so‘zlar: innovatsion usullar, tikuvchilik mahsulotlari, dekorativ elementlar, iqtisodiy samaradorlik, ayollar kiyimlari, tannarx, foyda, rentabellik, solishtirma tahlil, lasli kesish, 3D-effektlar, foyda marjasi.

Аннотация. Данная статья посвящена анализу экономической эффективности внедрения инновационных методов в производство декоративных элементов швейных изделий, в частности женской одежды. Основной целью исследования является сравнительный анализ основных экономических показателей (себестоимость единицы, цена продажи, прибыль, рентабельность) продукции, изготовленной с использованием традиционных и инновационных методов, а также определение влияния нового метода на финансовые результаты предприятия. Методология исследования включает расчёт таких показателей, как прибыль на единицу и общая прибыль, маржа прибыли и дополнительная прибыль на основе данных предприятия. Результаты показывают, что инновационный подход позволяет увеличить прибыль на единицу продукции на 20%, годовую чистую прибыль — на 670 млн сумов, а маржу прибыли — на 1,54 процентных пункта. В заключение доказано, что инновационные методы производства декоративных элементов не только улучшают эстетический

ISSN 3030-3907

вид изделия, но и обладают высокой экономической эффективностью, что укрепляет конкурентоспособность и финансовую устойчивость предприятия.
Ключевые слова: инновационные методы, швейные изделия, декоративные элементы, экономическая эффективность, женская одежда, себестоимость, прибыль, рентабельность, сравнительный анализ, лазерная резка, 3D-эффекты, маржа прибыли.
Abstract. This article analyzes the economic efficiency of introducing innovative methods in the production of decorative elements of sewing products, specifically women's clothing. The main objective of the study is to perform a comparative analysis of the key economic indicators (unit cost, selling price, profit, profitability) of products manufactured using traditional and innovative methods and to determine the impact of the new method on the enterprise's financial results. The research methodology includes calculating indicators such as unit and total profit, profit margin, and additional profit based on enterprise data. The results show that the innovative approach allows for a 20% increase in unit profit, a 670 million soum increase in annual net profit, and a 1.54 percentage point increase in profit margin. In conclusion, it has been proven that innovative methods for producing decorative elements not only enhance the aesthetic appearance of the product but also possess high economic efficiency, thereby strengthening the enterprise's competitiveness and financial stability.
Keywords: innovative methods, sewing products, decorative elements, economic efficiency, women's clothing, cost, profit, profitability, comparative analysis, laser cutting, 3D effects, profit margin.

KIRISH.

Tikuvchilik sanoati doimiy ravishda o‘zgarib turuvchi bozor talablari va raqobat sharoitida faoliyat olib boradi. Shu sababli, mahsulotlarning raqobatbardoshligini oshirish va ishlab chiqarish samaradorligini ta’minlash uchun innovatsion yondashuvlarni qo‘llash zamonaviy korxonalar uchun dolzarb vazifaga aylangan. Ayollar kiyimlari bozori estetik ko‘rinish, individual uslub va yangi dizayn yechimlariga bo‘lgan talablar bilan ajralib turadi [1-5].

Taklif etilayotgan «Ornamentli ayollar pidjakni» tashqi ko‘rinishining badiiy-konstruktorlik yechimi turli uchrashuvlarda kiyish uchun mo‘ljallangan bo‘lib, ko‘p qatlamli zamonaviy obrazlar yaratishga xizmat qiladi. Pigmentli bo‘yoq yordamida ishlangan shtrixografik (shelkografik) bezak mahsulotga o‘ziga xos joziba baxsh etadi.

ISSN 3030-3907



1-rasm. Taklif etilayotgan sanoat namunasining eng yaqin analogi

Mazkur namuna uchun eng yaqin analog sifatida www.lamoda.ru saytidagi ayollar jaketi tashqi ko‘rinishining badiiy-konstruktorlik yechimi tanlangan. Bu mahsulot ikki qatorli, beldan pastda tugmalanadigan, yarim yopishqoq siluetda ishlangan. Voriq ingliz uslubidagi yoqa bilan, oldi bo‘lagida relyefli chok, yon tomonlarda qopqoqli cho‘ntaklar mavjud. Orqa bo‘lakda markaziy chok va pastki qismda kesim (shlitsa) mavjud. O‘ng old bo‘lak va orqa yuqori qismida assimetrik joylashgan yorqin nashivkalar bor. Jaket astar bilan ishlangan va qora rangdagi to‘qima matodan tayyorlangan (1-rasmga qarang).

Yangi sanoat namunasini tasvirlovchi taqdim etilgan tasvirlar 2-rasmda keltirilgan [6].



2-rasm. Yangi sanoat namunasining old, ort, yon ko‘rinishi

Taklif etilayotgan “Ornamentli ayollar pidjagi” ikki qatorli, to‘g‘ri siluetga ega va beldan pastda ikkita tugma bilan yopiladi. Pidjak tipidagi yoqa, ikki yon ichki cho‘ntaklari plan shaklida qirrasi ishlangan. Yelka chokli, yenglar uchida uchta tugma bilan. Orqa bo‘lakda markaziy chok bor. Ornament sifatida pigmentli bo‘yoq bilan tushirilgan shelkografik naqsh qo‘llangan. Ornament o‘rta

ISSN 3030-3907

kenglikdagi chiziqlar shaklida bo‘lib, ular o‘zaro kesishib, ikki qavatli kvadrat (ko‘zgu effektli romb shakli) hosil qiladi. Pastki chiziqlar bir necha qatorda joylashgan katta tugallanmagan uchburchak shaklida berilgan bo‘lib, umumiy kompozitsiyani tashkil etadi. Bezakli chiziqlar yoqalar qirralari bo‘ylab, naqshlar kiyimning etak qismida, yengda, orqada yelka qismida bitta kompozitsiyada joylashtirilgan. Oldi bo‘lak pastki qismida takrorlanuvchi kompozitsiya, chiziq orqali bog‘langan holda berilgan. Kompozitsiyalarning bir qismi kvadrat pastga, keyingisi kvadrat yuqoriga qaragan tarzda burchakli ko‘rinishda joylashtirilgan. Pidjak qora rangdagi kostyum matosidan tayyorlangan.

Taklif etilayotgan «Ornamentli ayollar pidjaki» tashqi ko‘rinishining badiiy-konstruktorlik yechimi badiiy-informatsion ifodaviylik (originallik, uslubga moslik), texnik va funksional talablarga muvofiqlik kabi ko‘rsatkichlar bilan tavsiflanadi.

Taklif etilayotgan «Ornamentli ayollar pidjaki» standart uskunalar va zamonaviy texnologik jarayonlardan foydalangan holda ommaviy ishlab chiqarilishi mumkin.

Muhim belgilarning yig‘indisi (Ko‘ylakka xos belgilar bilan tavsiflanadi)**:** ikki qatorli, beldan pastda joylashgan, ikki tugmali ilishmalar; latskanli yoqa; yon cho‘ntaklar mavjudligi; orqa bo‘lakda markaziy chok.

Quyidagi xususiyatlarga ega: to‘g‘ri siluet, relief choklarsiz; pichoqli burmaga ega pidjak yoqali; ko‘krak cho‘ntagi bargchalar bilan; yon ichki cho‘ntaklar plan shaklida, qopqoqsiz; yengda uchta tugma mavjud; ornament mavjud; ornament – o‘rta kenglikdagi chiziqlarning kesishib, ikki qavatli kvadrat hosil qilishi, bu romb ko‘rinishini eslatadi; pastki chiziqlar tugallanmagan katta uchburchak shaklida bir necha qatorda joylashgan; bezak chiziqlari yoqa qirralari bo‘ylab joylashtirilgan; bargcha ostida, yengda, orqada yelka zonasida bir kompozitsiyada joylashgan; old bo‘lak pastki qismida chiziq orqali bog‘langan takrorlanuvchi kompozitsiyalar mavjud; kompozitsiyalarning burchakli joylashuvi: biri kvadrat pastga, boshqasi yuqoriga qaragan; pidjak qora rangdagi asosiy kostyum matosidan tayyorlangan.

Ushbu tadqiqotda ayollar kiyimlaridagi dekorativ elementlarni loyihalashda innovatsion usullarni joriy etish orqali erishilgan iqtisodiy samaradorlikni aniqlashga qaratilgan. Tadqiqotning asosiy maqsadi dekorativ elementlarni ishlab chiqarishning yangi usulini tatbiq etishning iqtisodiy jihatdan oqililligini va korxona moliyaviy ko‘rsatkichlariga ta’sirini kompleks tahlil qilishdan iborat.

METODOLOGIYA.

Tadqiqotning metodologik asosini solishtirma iqtisodiy tahlil tashkil etadi. Tadqiqot obyekti sifatida an’anaviy usulda ishlab chiqarilgan ayollar kiyimi va uning dekorativ elementlarini ishlab chiqarishga innovatsion usul joriy etilgan

ISSN 3030-3907

yangi mahsulot tanlab olindi. Ma’lumotlar manbai korxona moliyaviy hisobotlari va ishlab chiqarish jarayonining texnologik hujjatlaridir. Quyidagi iqtisodiy ko‘rsatkichlar hisoblab chiqildi:

- Bir dona mahsulot tannarxi va sotish narxi.
- Bir dona mahsulotdan olinadigan foyda.
- Yillik ishlab chiqarish hajmi asosida yillik sof foyda.
- Innovatsiyani joriy etish natijasida erishilgan qo‘shimcha foyda.
- Foyda marjasi (rentabellik koeffitsienti).

Hisob-kitoblarda an’anaviy va innovatsion mahsulotlarning 1-jadvalda keltirilgan ko‘rsatkichlari asos qilib olindi.

NATIJALAR.

Tadqiqot natijalari 1-jadvalda keltirilgan ma’lumotlar asosida quyidagi hisob-kitoblar amalga oshirildi.


1-jadval

Ayollar kiyimlarini ishlab chiqarishning an’anaviy va innovatsion usuldagi iqtisodiy ko‘rsatkichlari

Ko‘rsatkich	An’anaviy mahsulot	Yangi innovatsion mahsulot	Farqi
Yillik ishlab chiqarish hajmi, dona	37 000	42 000	+5 000
Bir dona mahsulot tannarxi, so‘m	250 000	260 000	+10 000
Bir dona mahsulot sotish xarajati, so‘m	200 000	200 000	0
Bir dona mahsulot umumiy xarajati, so‘m	450 000	460 000	+10 000
Bir dona mahsulot narxi, so‘m	500 000	520 000	+20 000
Bir dona mahsulotdan foyda, so‘m	50 000	60 000	+10 000
Yillik ishlab chiqarilgan mahsulot sotishdan foyda, so‘m	1 924 000 000	2 520 000 000	+596 000 000

Yuqoridagi jadval asosida quyida diagramma ishlab chiqilgan bo‘lib, natijalarni aniq tahlil qilishni soddalashtirishga xizmat qiladi (3-rasmga qarang).

ISSN 3030-3907



3-rasm. Natijalarni qiyosiy tahlili

Bir dona mahsulot foydasi (π_u):

An’anaviy: π_u^(a) = 500 000 – 450 000 = 50 000 so‘m

Innovatsion: π_u⁽ⁱ⁾ = 520 000 – 460 000 = 60 000 so‘m

Innovatsion usul har bir dona mahsulotdan olinadigan foydani 10 000 so‘mga yoki 20% ga oshirdi.

Yillik sof foyda (П):

An’anaviy: П^(a) = 37 000 × 50 000 = 1 850 000 000 so‘m (1-jadvaldagi 52 000 so‘m emas, balki 50 000 so‘m asosida qayta hisoblandi).

Innovatsion: П⁽ⁱ⁾ = 42 000 × 60 000 = 2 520 000 000 so‘m.

Yillik sof foyda 670 million so‘mga o‘sdi.

Qo‘shimcha foyda (ΔП):

ΔП = П⁽ⁱ⁾ - П^(a) = 2 520 000 000 – 1 850 000 000 = 670 000 000 so‘m.

Foyda marjasi (m):

An’anaviy: m^(a) = (50 000 / 500 000) × 100% = 10.0%

Innovatsion: m⁽ⁱ⁾ = (60 000 / 520 000) × 100% ≈ 11.54%

Foyda marjasi 1.54 foiz punktga oshdi.

MUHOKAMA.

O‘tkazilgan tadqiqot va hisob-kitoblar natijalari shuni ko‘rsatadiki, ayollar kiyimlari dekorativ elementlarini ishlab chiqarishga innovatsion usulni joriy etish

ISSN 3030-3907

aniq iqtisodiy samara keltiradi. Xarajatlarning cheklangan darajada o‘sishi (2.2%) bilan solishtirganda, sotish narxining (4%) va eng muhimi, birlik foydaning (20%) sezilarli o‘sishi innovatsion yondashuvning bozor qimmatini oshirishdagi samaradorligini tasdiqlaydi.

Yillik sof foydaning 670 million so‘mga o‘sishi va foyda marjasining 10.0% dan 11.54% gacha ko‘tarilishi korxonaning moliyaviy barqarorligi va rentabelligini sezilarli darajada yaxshilaydi. Qo‘shimcha foydaning katta qismi nafaqat birlik foydaning oshishidan, balki ishlab chiqarish hajmining 5000 donaga o‘sishidan ham kelib chiqqan. Bu esa yangi mahsulotning bozorda yuqori qabul qilinishini va sotuvlar jadallashganini ko‘rsatadi.

XULOSA.

Xulosa qilib aytish mumkinki, dekorativ elementlarni loyihalash va ishlab chiqarishdagi innovatsion yondashuv nafaqat mahsulotning estetik va ishlash xususiyatlarini yaxshilaydi, balki korxonaga sezilarli iqtisodiy afzalliklar ham taqdim etadi. Ushbu usulni joriy etish qisqa muddatda kapitál xarajatlarni talab qilishi mumkin bo‘lsa-da, o‘rta va uzoq muddatda uning investitsion jozibadorligi yuqori hisoblanadi. Kelajakdagi tadqiqotlar ushbu usulning boshqa mahsulot turlariga tatbiq etilishining iqtisodiy samaradorligini va uning ishlab chiqarish siklining boshqa bosqichlariga (masalan, logistika, sifat nazorati) ta’sirini o‘rganishga qaratilishi mumkin.

ADABIYOTLAR

1. Tashpulatov S.Sh, Abdubanonova U, Tursunova Sh. Анализ используемых материалов и декоративных отделок для верхней одежды. Научный журнал Universum: технические науки. Выпуск: 7(112) Июль 2023 Часть 3 Москва с 31-35

2. Tashpulatov S.Sh, Tursunova Sh.F. To`qimachilik materiallarida dekorativ bezak elementi sifatida pigmentli gul bosishni loyihalash usullarining tahlili. Kompozitsion materiallar Ilmiy-tehnikaviy va amaliy jurnali. №2/24, 207-209 bet.

3. Tashpulatov S.Sh, Tursunova Sh.F. Ayollar kostyumbop matolarida pigmentli plastizol bo`yoqlarining mustahkamligi va funksional xususiyatlarini tadqiq etish. To`qimachilik va moda sanoatida ilm-fan va innovatsiyalar ilmiy texnika jurnali ISSN:3030-3788 №3/2025 83-88 bet.

4. Rashidbek Atajanov Salikh Tashpulatov, Islombek Khakimzhonov, Marguba Rajapova, Irina Cherunova, Sherzod Korabayev. Research and Development of Special Clothing for Protection against Thermal Effects. International Conference on Physical Research & Engineering Technology Problems” AIP Conf. Proc. 3304, 030027-1–030027-15; https://doi.org/10.1063/5.0269163

5. Xakimjonov, Islombek, and Salikh Shukurovich Tashpulatov. "Analysis of the model project based on a survey conducted with the aim of creating workwear for working personnel of metalworking enterprises."
6. С.Ш.Ташпулатов, Ш.Ф.Турсунова, З.М.Ахмедова. Женский пиджак с орнаментом. Патент на промышленный образец №SAP 2779 по заявке SAP 20250078 от 20.02.2025.